

Ta'limning zamonaviy transformatsiyasi

Mahalliy budget daromadlarini prognozlashtirishni zamonaviy yo'llari

Abdunazarova Gulrux Jumanazarovna

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi

huzuridagi Soliq qo'mitasi

huzuridagi Fiskal institut magistranti

Annotatsiya: Mazkur maqolada iqtisodiyot tarmoqlari va hududlar bo'yicha soliq salohiyatini hisoblash formulalari keltirilgan shuningdek soliq-siyosatini takomillashtirish, budgetda xarajatlar ehtiyojlarini va tenglashtirish dasturlarining asosiy jihatlarini aniqlashda mavjud innovatsion usullar va uslubiy yondashuvlarni ishlab chiqishni takomillashtirish, davlat moliyasini boshqarish samaradorligini oshirish maqsadida iqtisodiy-matematik modellashtirish va prognozlashning keng ko'lamli usullarini joriy etish yuzasidan takliflar berilgan.

Kalit so'zlar: soliq, budget siyosati, budget, soliq ma'murchiligi, maxaliy budget, soliq salohiyati, normativ tahlil, pozitiv tahlil, soliq yuki, reprezentativ soliq stavkasi, o'rtacha stavka soliq hisoboti, soliq tushumlari, soliq imtiyozlari, soliq stavkasi.

Kirish:

Davlat budgeti tuzumidan va taraqqiyot darajasidan qat'iy nazar, davlat funksiyalarini bajarish uchun budget daromadlarining lozim darajada shakllantirish har bir davlat uchun zarur hisoblanadi. Bu esa pandemiya sharoitida, aholini qo'shimcha ijtimoiy himoya qilish zarurati paydo bo'lgan vaqtda, iqtisodiy faollikning kamayishi, ta'dbirkorlik faoliyatini to'xtashi va boshqa omillar natijasida davlat budgeti daromadlarining kamayishi ko'p davlatlarda davlat budgeti daromadlarini shakllantirishda optimal yondashuv zarurligini taqozo etadi.

Tahlil va natijalar muhokamasi.

Davlat soliq xizmati organlarida ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishning prognoz parametrlarini hisobga olgan holda, mahalliy budgetiga soliqlar va yig'imlar

Ta'limning zamonaviy transformatsiyasi

bo'yicha tushumlarni hisoblash O'zbekiston Respublikasi qonunchiligiga muvofiq amalga oshiriladi.

Davlat budjeti daromadlarini prognozlashda quyidagi tamoyillarga muvofiq amalga oshirilishi lozim:

uzluksizlik tamoyili-prognoz baholashni takomillashtirish uchun prognozlash jarayonining doimiyligini (real vaziyatning mumkin bo'lgan o'zgarishlari munosabati bilan prognoz baholashni aniqlashtirish), shuningdek, budget daromadlarini prognozlash va daromadlarni boshqarish rejalarini tuzish o'rtasidagi bog'liqlikni ta'minlaydi;

ko'p variantli hisob-kitoblar tamoyili- turli prognoz variantlarini taqqoslash va optimal variantni tanlab olish;

to'liqlik tamoyili-O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlarida nazarda tutilgan barcha daromadlarni budgetda muhimligi va ahamiyatliligi talabiga rioya etilishini hisobga olgan holda to'liq hajmda prognoz qilishni nazarda tutadi;

birlik tamoyili-barcha ma'muriy-hududiy birliklar bo'yicha budget daromadlarining prognoz ko'rsatkichlarini aniqlashda yagona yondashuvni qo'llashni nazarda tutadi;

izchillik tamoyili- quyidagilarni anglatadi:

budget daromadlari prognoz ko'rsatkichlarining mamlakatni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish parametrlari va yo'nalishlariga hamda budget parametrlariga muvofiqligi;

ehtiyyotkorlik tamoyili-hisob-kitoblar uchun zarur bo'lgan mulohazani shakllantirish jarayonida ma'lum darajada ehtiyyotkorlikni nazarda tutadi, bu esa daromadlarni oshirib ko'rsatish va yo'qotishlarni to'g'ri baholash oldini olishga imkon beradi.

Shuningdek, Davlat budjeti daromadlari prognozini shakllantirish quyidagi ketma-ketlikda amalga oshirilishi lozim:

daromad turlari bo'yicha bazani aniqlash (yig'ish, toplash), prognozlash uchun parametrlar tizimini tanlash;

Ta'limning zamonaviy transformatsiyasi

mahalliy budgetga daromadlar tushishiga ta'sir etuvchi omillarni aniqlash, daromadlar o'sishini rag'batlantiradigan hamda daromadlar o'sishini sekinlashtirish mumkin bo'lgan ta'sirlar to'g'risida ekspert xulosalarini ilgari surish; dastlabki ma'lumotlarni to'plash va tizimlashtirish, ularni baholash, ma'lumotlarning bir xilligi va solishtirilishini tekshirish;

zarur hollarda budget daromadlari to'g'risidagi dastlabki ma'lumotlarni qonun hujjatlariga muvofiq tuzatish, budget yo'qotishlarini (qo'shimcha daromadlarini), bir martalik tushumlarni miqdoriy baholash;

mahaliy budget ko'rsatkichlari dinamikasi tendensiyalarini aniqlash, prognozlarning bir nechta variantlarini ishlab chiqish; daromadlarni prognoz qilishning turli xil variantlarini ko'rib chiqish va eng maqbulini tanlash hamda budget daromadlari bo'yicha fiskal ko'rsatkichlarni umumlashtirish lozim bo'ladi.

Bundan tashqari, prognozlash metodologiyasi har bir daromad turi uchun ishlab chiqiladi va har bir daromad turi uchun quyidagi hisoblash usullaridan biri qo'llash maqsadga muvofiq bo'ladi:

to'g'ridan-to'g'ri hisoblash usuli-daromad turlari bo'yicha tushumlarning prognoz hajmini belgilovchi hajm va tannarx ko'rsatkichlari, stavkalar darajalari va boshqa ko'rsatkichlarning prognoz qiymatlaridan bevosa foydalanish asosida;

indeksatsiya usuli-O'zbekiston Respublikasi budget tizimi budgetlari daromadlarining prognoz turi dinamikasini tavsiflovchi yalpi ichki mahsulotning o'sish koeffitsientlaridan, shu jumladan absolyutda, foydalangan holda hisoblash;

ekstrapolyatsiya usuli-oldingi davrlardagi daromadlar tendensiyalari to'g'risidagi mavjud ma'lumotlar asosida amalga oshiriladigan hisob-kitob;

o'rtacha hisoblash usuli-O'zbekiston Respublikasi budget tizimi budgetlari daromadlarining yillik hajmlarini kamida 3 yil davomida yoki agar u 3 yildan oshmasa, tegishli turdag'i daromadlar kelib tushishining butun davri uchun o'rtacha ko'rsatkichlariga asoslangan hisob-kitoblari daromad olishni ishonchli prognoz qilish imkonini beruvchi boshqa usullardan foydalanish mumkin.

Xulosa va takliflar.

Ta'limning zamonaviy transformatsiyasi

Davlat moliyasini boshqarish samaradorligini oshirish maqsadida iqtisodiy-matematik modellashtirish va bashorat qilish keng doiradagi ilmiy usullarini qo'llashni takomilashtirish zarur.

Adabiyotlar ro'yxati:

O'zbekiston Respublikasi Soliq kodeksi- Toshkent: G'afur G'ulom nashriyot uyi 2020.- 640 b.